

DIMITRIY DIMITRIYEVICH SHOSTAKOVICH IJODIDA POLIFONIYA**Abdusattorov Abdujalil Abduvali o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti "Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrası
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7164517>

Annotatsiya. Azaldan ko'p ovozlilik (polifonik) uslubda ijod qilgan turli davrlarda o'z o'rniga ega ijodkor kompozitorlar bir talay yetishib chiqqanini bilamiz. Maqolada Shostakovich ijodi, uning musiqiy tili, asarini tahlil tarzi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompozitor, polifonik rivojlanish, cholg'ulashtirish, musiqiy tahlil.

ПОЛИФОНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ДМИТРИЯ ДМИТРИЕВИЧА ШОСТАКОВИЧА

Аннотация. Мы знаем, что был ряд творческих композиторов, занимавших свое место в разные эпохи, которые с незапамятных времен творили в полифоническом стиле. В статье рассказывается о творчестве Шостаковича, его музыкальном языке и способе анализа его творчества.

Ключевые слова: композитор, полифоническое развитие, инструментовка, музыкальный анализ.

POLYPHONY IN THE OEUVRE OF DMITRY DMITRIEVICH SHOSTAKOVICH

Abstract. We know that there have been a number of creative composers who have taken their place in different eras, who have been creating in a polyphonic style since time immemorial. The article tells about the work of Shostakovich, his musical language and the way of analyzing his work.

Keywords: composer, polyphonic development, instrumentation, musical analysis.

KIRISH

Shostakovich kompozitorlik ijodiyotining deyarli barcha janrlarini qamrab, simfonik musiqa, vokal musiqa, musiqali teatr, kamer musiqa sohalarida jahonshumul ahamiyatga molik asarlar yaratgan. Hususan, 15 simfoniya (1925), "Burun" (1930) va "Katerina Izmaylova" (1934, 2-tahriri 1956) operalari, 15 ta kvarteti (1938 — 74), skripka (1968), alt (1975), violonchel (1934) sonatalari, cholg'u konsertlari (1933—67), 24 prelyudiya va fugasi (1951), Pushkin, Blok, Byorns, Shekspir, Mikelanjelo va boshqalarning she'rlariga yaratg'an qo'shiq va romanslari, 30 ga yaqin kinofilm (Maksim haqida trilogiyasi, 1935— 39; "Yosh gvardiya", 1948; "So'na", 1955; va, ayniqsa, "Hamlet" 1964; "Qirol Lir", 1971)larga yozgan musiqalari bilan mazkur janrlarning 20-asrdagi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Teran dramatism, fojiaiylik bilan sug'orilgan, ayni paytda nozik lirika, o'tkir yumor va kinoyaga boy.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shostakovich asarlarida chuqur, hayotan muhim g'oyaviy konsepsiyalar, inson kechinmalarining murakkab olami, uning orzuumidlari, yorug'lik va kamolotga intilishlari o'zining badiiy yetuk ifodasini topgan.

Shostakovich 1940-yillardan e'tiboran O'zbekiston san'atkorlari bilan yaqin ijodiy aloqada bo'lgan. Fashistlarga qarshi jangning ramziga aylangan mashhur 7 "Lenintradnoma" simfoniya (1942.22.6), keyinchalik deyarli barcha simfoniylari, "Oyimqiz va bezori" baleti, konsertlari, kamer musiqasi muntazam ijro ztilgan. Sh. bir necha bor O'zbekistonga kelgan (1959, 1960, 1964), M.Burhonov, A.Jabborov, F.Yanov-Yanovskiylar bilan do'stona alohida bo'lgan, yosh o'zbek kompozitorlari va

musiqashunoslarini qo'llab quvvatlagan. Shostakovich ijodi ko'pgina zamonaviy kompozitorlar (jumladan, O'zbekistonda — Ik. Akbarov, M.Tojiyev, T.Qurbonov, M. Mahmudov, N.G'iyosov va boshqalar) ijodiga ta'sir o'tkazgan. Bu haqda T.Vizgo, N.YanovYanovskaya va T. G'afurbekovlar tadqiqotlar yaratishgan.

D. D. Shostakovich – sovet kompozitor, pianist, san'atshunoslik fanlari doktori, professor, xalqaro va respublika mukofotlari sovrindori. U 15 ta simfoniya, 3 ta opera, ko'p sonli kamer musiqa asarlari, kinofilm va teatr uchun musiqa maullifidar.

Yuqori darajadagi kompozitorlik texnikasi, yorqin va ifodali kuy va mavzu yozish qobiliyati, polifoniya va cholg'ulashirish bo'yicha bilim-ko'nikmalari – bularning barchasi uning musiqiy asarlariga yorqin o'ziga xoslik va ulkan badiiylik baxsh etadi.

TADDIQOT NATIJALARI

Shostakovich ijodida polifoniya muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z ijodida polifonik shakllarga (fortepiano uchun 24 ta prelyudiya va fuga) murojaat qilgan va xatto simfonik hamda kamer cholg'u asarlari fakturalarida polifonik ko'povozlikning barcha variantlarini qo'llashga intilgan. Polifoniya musiqiy shakl materialini yaratishdagi asosiy prinsipga aylanib qolgan. Polifoniyaga bo'lgan bunday munosabat faqat uning uslubiga xos emas, balki XX asr musiqasiga butunlay tegishlidir. Bularndan Xindemit, Stravinskiy, Bartok, Onneger ijodini aytib o'tish lozim.

Shostakovichning polifoniyani qo'llash xususiyatlarini o'rganishda polifonik priyomlarning dramaturgik funksiyalari, umumiy Yevropa polifonik prinsiplarining sintezlashuvi, rus milliy ko'povozlik xususiyatlari – bularning barchasi muxim ahamiyat kasb etadi. «Polifonik simfonizm»ning o'ziga xos sifatleri Shostakovichda to'laqonli ochib beriladi.

Avvalo, Shostakovich simfonik asarlarining tematizmlari haqida to'xtalib o'tamiz. Kuy – polifoniya va gomofoniyaning sintezlashishiga asoslangan. Lekin kuyda, asosan, polifonik rivojlanish tamoyillari ko'zga tashlanadi (poliritmiya, polimetriya, lad, imitatsiyalar, yashirin polifoniya, kontrapunktlar, polifonik faktura orqali). Motiv qismlarini variantli takrori bilan melodik fazaning intonatsion birlashtirish texnikasi Shostakovich melodik uslubining o'ziga xos xususiyatidir.

MUHOKAMA

Shostakovich asarlarida polifoniya rivojlanishning asosiy tamoyili sifatida ko'rib chiqiladi. Rivojlanish ko'pincha variatsionlik bilan ifodalanadi. Polifonik variatsionlik Shostakovich asarlarida obrazlar tuzilishi va energiyaning asta-sekin o'sib borishiga olib keladi.

Kompozitor turli kontrapunktardan keng foydalanadi va ayniqsa, vertikal-harakatchan kontrapunktardan. Masalan, 5- kvartetning 1-qismida $Iv=-8$, rivojlov qismida $Iv=-14$. Shostakovich kontrapunktardan rivojlantiruvchi, o'zgartirib rivojlantirilgan takror va kontrastlilik hosil qiluvchi omil sifatida foydalanadi.

Kanonik imitatsiya Shostakovichning sevimli imitatsiyalash shaklidir. Kompozitor imitatsiyalar orqali simfonizmida dinamik faollikni oshirgan, ya'ni bir ovozda mavzu berib, uni turli polifonik ovozdarda o'tkazib, dinamikani kuchaytirgan. Kanonni ko'pincha kulminatsiyalarda ishlatadi. Masalan, 6-kvartetning final qismida asosiy partiya mavzusi yuqori ovozda kanon sifatida beriladi. Kanondan tashqari, oddiy va erkin (ritmik) imitatsiya hamda strettali kanonik imitatsiyalashni ham uchratish mumkin.

Linear mantiqning boshlang'ich asoslarida Shostakovich ko'pincha, garmoniyaning aktiv ta'siriga intilardi. Rivojlovda ovozlar guruh bo'lib birlashtirishga harakat qiladilar va shu qatorda kontrapunkt kontrast sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Shu orqali «qatlamli polifoniya»

(«plastovaya polifoniya») deb nomlangan polifoniya texnikasining yangi va qiziqarli ko‘rinishi paydo bo‘ladi.

«Qatlamli polifoniya» zamonaviy musiqada qo‘llaniladigan ifodaviy vositalardan biridir. Ichki chiziqlar faol rivojlanishining mavjud emasligi, variantli ohangning yangilanishi, imimitatsion – kontrapunkt rivojlanishining boyitilishi bilan to‘ldiriladi. Tabiiyki, qatlamlarning qo‘shilish jarayoni Shostakovichda to‘qimalarning yuqori polifonizatsiya jarayonidir. Shostakovich katlamli qo‘shilishlarda o‘z oldiga «polifonik daraja»ni pasaytirmay, garmonik ta’sirni kuchaytirishni maqsad qilib qo‘yadi, ya’ni polifoniyadan keng foydalanib, garmoniya rolini kuchaytirishga intiladi va polifoniya va garmoniya qatlamlarining birlashishi orqali kontrastlilikni vujudga keltiradi.

Bundan tashqari Shostakovich sonata-simfonik shakllarining ichiga polifonik shakllarni kiritadi. Ba’zi asarlari fugasimon shakllar, ba’zilarida esa fuga shaklining o‘zini kiritadi. Masalan, 4-simfoniyasining 1-qismida erkin fugato, 11-simfoniyasida ham fugato, 3-kvartetining razrabotkasida fugani kiritadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Shostakovich ijodida simfonizmning yangi shakli – polifonik simfonizm vujudga keladi. Kompozitor zamonaviy simfonizmga polifoniyaning ro‘lini kuchaytiruvchi prinsiplarini yaratdi. Polifonizatsiya ya’ni gomofon shaklga polifoniya unsurlarini kiritish Shostakovich ijodining asosiy prinsipi aylandi. Uning ijodida benazir g‘oyalar, turli mavzuli obrazlar, ulkan ijodiy maktabi mavjud bo‘lib, zamonamiz kompozitorlari va kelajak ijodkorlari uning ijod yo‘nalishini qund ila o‘zlashtirib o‘rgansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

REFERENCES

1. F.Muxtarova “Polifoniya” T, 2009-yil
2. T.G’ofurbekov tarjimasini “Musiqqa shakli” T, 1982-yil
3. O.Fayziyev, Q. Raximov “Musiqiy asarlar tahlili” Navoiy 2015-yil
4. Холопова В.Н. Анализ музыкальных форм (учебное пособие). СПб, 2001
5. Мазель Л.А., Цуккерман В.А. Анализ музыкальных произведений (учебное пособие). М., 2002.
6. Матякубова С. Барокко. Стилиевые проявления в искусстве (учебное пособие). Т., 2011.
7. Kurbanova, B., Khurshid, M., & Tokhirjon, S. (2022, May). THE ROLE AND IMPORTANCE OF A SYSTEMATIC APPROACH TO TEACHING IN THE FINE ARTS. In *Archive of Conferences* (pp. 105-107).
8. Мамазияев, Х. А. Ў. (2022). МАҚОМ САНЪАТИДА МУСИҚА ЧОЛҒУЛАРИНИНГ ТАДРИЖИ. *Science and innovation*, 1(С3), 7-14.
9. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
10. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.